



# ВЕСТНИК СОВРЕМЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ZAMONAVIY TADQIQOTLAR AXBOROTNOMASI BULLETIN OF CONTEMPORARY STUDIES

ISSN: 2181-4554. Volume II, Issue-11, (November) 2024  
Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/bocs>

**KARSHIBAYEV Fayzulla Umirzakovich**  
*Bojxona instituti  
dotsenti  
bojxona xizmati podpolkovnigi*

**SULTONOV Xusan Olimjon o'g'li**  
*Bojxona instituti  
4-kurs kursanti*

## BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA INSONNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARINI TA'MINLASH XUSUSIYATLARI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda inson huquqlarining ta'minlanishiga e'tibor qaratiladi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan sud-tergov faoliyatidagi yangilanishlar tahlil qilinadi. Maqolada, bojxona jinoyatlariga qarshi kurashishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga hurmat qilish zaruriyati ta'kidlanadi.

Shuningdek, O'zbekistonning huquqiy normalari va xalqaro huquq asosida jinoyatlarni fosh etishda yangilanishlar va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** bojxona jinoyatlari, inson huquqlari, tezkor-qidiruv faoliyati, konstitutsiya, jinoyat-protsessual kodeks, huquqni muhofaza qilish, islohotlar.

## ОСОБЕННОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПЛЕНИЯМИ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается обеспечение прав человека в борьбе с преступлениями в таможенной сфере Республики Узбекистан. Анализируются изменения в судопроизводственной деятельности с принятием новой Конституции Узбекистана. В статье подчеркивается необходимость уважения конституционных прав граждан в борьбе с таможенными преступлениями.

Также представлены обновления и предложения по раскрытию преступлений на основе правовых норм Узбекистана и международного права.

**Ключевые слова:** таможенные преступления, права человека, оперативно-розыскная деятельность, конституция, уголовно-процессуальный кодекс, защита правопорядка, реформы.

## FEATURES OF ENSURING CONSTITUTIONAL HUMAN RIGHTS IN THE FIGHT AGAINST CUSTOMS CRIMES

### ANNOTATION

This article focuses on the protection of human rights in the fight against customs crimes in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the changes in judicial and investigative activities with the adoption of the new Constitution of Uzbekistan.

The article emphasizes the necessity of respecting citizens' constitutional rights in the fight against customs crimes. Furthermore, it provides updates and suggestions for uncovering crimes based on Uzbekistan's legal norms and international law.

**Keywords:** customs crimes, human rights, operational investigative activities, constitution, criminal procedural code, law enforcement, reforms.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasiga ko‘ra, jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ayniqsa va sud-tergov faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni kafolatlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada shuni aytish joizki, *2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi bilan sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlash yanada mustahkamlandi* [1, B.5-7].

Yangi Konstitutsiya bilan sud-tergov faoliyatida joriy etilgan konstitutsiyaviy qoidalar bo‘jxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish, bu borada o‘tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda kriminalistik ish uslublarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu bois, bugungi kunda bo‘jxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etish amaliyotini yangi konstitutsiyaviy qoidalar talablariga rioya qilgan holda olib borishni hamda ushbu yo‘nalishda huquqiy normalarda belgilangan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni davrning o‘zi taqazo qilmoqda. Xususan, bugungi kunda sud-tergov faoliyatida va huquqni muhofaza qilish faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilishni ta‘minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi [2, B.14-15].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlarini, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish vazifasi belgilab olindi va unda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirib olindi.

- yagona elektron reestr yaratish orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan tortib ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo‘lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish;

- dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish;

- sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta‘minlash bo‘yicha ishlar toifasining kamida 30 foizini xususiy sektor yordamida ijro etishni yo‘lga qo‘yish;

- jiddiy oqibatlar bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari sonini kamida 50 foizga kamaytirish;

- 100 foiz jinoyat ishlari va materiallarning elektron shakldagi nusxasini yuritish va ushbu ishlar bo‘yicha elektron hujjat almashinuvini ta‘minlash [3, B.2-3].

O‘zbekiston Respublikasining yuqori ustuvor qonunlari va qonunosti hujjatlarida belgilab olinayotgan sud-tergov faoliyatida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish amaliyotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Xususan, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan bojxona organlariga bir qator turdagi bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish vakolati berilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan davlat organlari qatorida bojxona organlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa o‘z navbatida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan bojxona organlari mansabdor shaxslariga bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish mas‘uliyatini yana bir bor oshiradi [4, B.2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining “Jinoyat ishining tergovga tegishliligi” nomli 381<sup>2</sup>-moddasida ko‘rsatilgan quyidagi moddalar:

1.	130-modda.	<i>Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish</i>
2.	130 <sup>1</sup> -modda.	<i>Zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish</i>
3.	182-modda.	<i>Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish</i>
4.	184-modda.	<i>Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash.</i>
5.	244 <sup>3</sup> -modda.	<i>Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish</i>
6.	244 <sup>4</sup> -modda.	<i>Uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish</i>
7.	246-modda.	<i>Kontrabanda</i>
8.	250 <sup>1</sup> -modda.	<i>Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi</i>

Mazkur moddalarda ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar bo‘yicha bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish orqali sodir etiladi. Shu bois, ushbu moddalarda ko‘rsatilgan bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda bojxona organlari tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lib, bu bojxona organlari mansabdor shaxslari tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar yektishuv va surishtiruv o‘tkazishda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish mas‘uliyatini yuklaydi [5, B-189].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi bilan sud-tergov faoliyatida inson huquqlarini himoyalashni kafolatlovchi yangi konstitutsiyaviy qoidalar joriy etilgan.

Xususan, 2023-yil 30-aprelda umumxalq ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 146-moddasida:** “O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi.” deb belgilab qo‘yilgan.

Bu shuni anglatadiki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash hamda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi va kafolatlanadi.

Shu bilan birga, **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 20-moddasida:** "Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas." deb belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 31-moddasida esa:** "Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi." deb belgilab qo'yildi. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunga qadar prokuror sanksiyasiga (ruxsatiga) asosan o'tkazilayotgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlarini bundan buyon sudning qaroriga asosan o'tkazish bo'yicha yangi tartib kiritildi.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 28-moddasida esa:** "...Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas." deb belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan bu kabi yangi o'zgartirishlar va qo'shimchalar bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda yangi Konstitutsiya talablariga javob beradigan hamda sud-tergov faoliyatida inson huquqlariga to'liq rioya etilishini ta'minlovchi yangicha tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarini amaliyotga joriy etishni talab qilmoqda.

**Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishda yangi Konstitutsiya qoidalarining joriy etilganligi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qilmoqda:**

- jinoyatchilikka qarshi kurashda sud-tergov faoliyatida inson huquqlariga to'liq rioya qilishni ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirishni;

- jinoyatchilikka qarshi kurashda konstitutsiyaviy qoidalarga rioya qilishni ta'minlovchi yangicha tezkor-qidiruv va kriminalistik ish uslublarini amaliyotga joriy etishni;

- jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatida konstitutsiyaviy qoidalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash huquqiga ega bo'lgan tezkor xodimlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar va sudyalarning yangi Konstitutsiya qoidalarini o'rganish va amaliyotda qo'llash bo'yicha malakasini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. B-5-7.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. B-14-15.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son farmoni. B-1-2.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-344-son Qonuni. B-2.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. B-189.